

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent shahridagi Turin politexnika  
universiteti rektori



O.A. To'ychiyev

“ 11 ”   sept   2024 y

**Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga kirish-nazorat punkti binosi  
hamda avtomobillar uchun darvoza qurilishi uchun  
TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Mazmuni
1	Buyurtmachi	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti. 100095. Toshkent sh, Olmazor tumani, Kichik halqa yo'li 17-uy. <a href="mailto:www.info@polito.uz">www.info@polito.uz</a> Tel/faks: 71-246-70-82
2	Loyihani amalga oshirish uchun asos	Universitet kengashi qarori
3	Loyihani moliyalashtirish manbasi	Universitet mablag'lari
4	Ob'jektning taxminiy qiymati	500 000 000 (besh yuz million) so'm
5	Loyiha tashkiloti	MChJ “ENGINEERING MIR-ROSSO”
6	Qurilish ishlari boshlanishi va tugash muddatlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 oy
7	Qurilish ishlarini bajarishdagi xavfsizlik talablari	<p>Qurilish ishlarini bajarishdagi barcha me'yoriy normalarga amal qilinishini ta'minlash. Ish jarayonida texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligini, mehnat xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash bosh pudratchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi hamda javobgar shaxs buyruq orqali belgilanadi va buyruq nusxasi buyurtmachiga taqdim etiladi.</p> <p>Bosh pudratchi shartnoma imzolanganiga qadar qurilish ishlari davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz yoki favqulodda holatlardan sug'urtalanganligi to'g'risida shartnoma nusxasini taqdim etishi shart.</p> <p>Bosh pudratchi qurilish ishlari boshlangunga qadar mehnat muhofazasi, favqulodda holat yuz berganda amalga oshiriladigan ishlar bajarilishi bo'yicha dastur ishlab chiqishi va uni Buyurtmachiga taqdim etishi shart.</p>
8	Obyektning murakkablik toifasi	1- toifa
9	Qurilish montaj ishlarining nazorati va yakunlangan ishlarni topshirish bo'yicha talablar	Bosh pudratchi tashkilot rahbarlari: - Qo'llanilayotgan barcha qurilish materiallarini sifat nazoratidan o'tkazish; - Bajarilayotgan ishlar sifatini bevosita qurilish maydonchasidan nazorat qilishni yo'lga qo'yish; - Qurilish montaj ishlarini texnologik jihatidan to'g'ri tashkil etish; - Yakunlangan ishlar dalolatnomasini o'z vaqtida rasmiylashtirish; - Bajarilgan ishlar bo'yicha ijro hujjatlarini o'z vaqtida to'ldirib borish; - Qurilish montaj ishlarini o'zaro tasdiqlangan grafik asosida bajarilishini ta'minlash; - Loyiha smeta hujjatlarida ko'rsatilmagan ishlar bajarilganda dalolatnoma tuzish va ish hajmi alohida hisoblash. Bajarilgan ishlarni qabul qilish Buyurtmachi tasdiqlagan komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va

		KMK, SHNK normalari asosida amalga oshiriladi va zaruriy barcha dalolatnomalar orqali tasdiqlanadi.
10	Qurilish ishlarni moliyalashtirish	Shartnoma tuzilgan sanadan so'ng shartnomada ko'rsatilgan muddatda 30% miqdorda avans to'lab beriladi. 65% to'lov bajarilgan ishlarning miqdoriga mos ravishda, bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar to'liq imzolangan holatda to'lab boriladi. Qolgan 5% to'lov obyektning ekspluatatsiya kafolat muddati tugagandan so'ng to'lab beriladi.
11	Ob'yektni topshirish muddati va ishlarni sifatli bajarishga bo'lgan talablar	Barcha qurilish montaj ishlari loyiha smeta hujjatlari, qurilish normalari va qurilish ishlarini olib borish qoidalariga qat'iy amal qilgan holda bajariladi. Obyektning texnologik kartasi Bosh pudratchi tomonidan tuziladi va unga qurilish davomida amal qilinishi ta'minlanadi. Bosh pudratchi tomonidan qurilish montaj ishlarini bajarish jarayonida obyektga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, Buyurtmachi va Bosh pudratchi o'rtasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida 3 (uch) ish kuni ichida dalolatnoma tuziladi.

**Bosh muhandis**



**I.Eshmuratov**